

IBROHIM MO'MINOVNING ILMIY MAKTABI VA UNING MILLIY KADRLAR TAYYORLASHDAGI XIZMATLARI

Mo'minov Temur Abror o'g'li

*Toshkent amaliy fanlar universiteti "Tarix
va ijtimoiy fanlar" kafedrası dotsenti v.b., t.f.f.d (PhD)*

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada XX asr o'zbek falsafasi va ijtimoiy-gumanitar fanlari taraqqiyotida muhim o'rin tutgan akademik Ibrohim Mo'minov tomonidan asos solingan ilmiy maktab hamda uning O'zbekistonda milliy-ilmiy kadrlar tayyorlashdagi beqiyos xizmatlari keng yoritilgan. Unda Ibrohim Mo'minovning nafaqat faylasuf olim, balki yuksak ma'naviyatli murabbiy, tashkilotchi va jonkuyar ustoz sifatidagi faoliyati ilmiy manbalar va xotiralar asosida tahlil qilinadi.

Maqolada Mo'minovning falsafa, tarix, huquqshunoslik, filologiya va sharqshunoslik sohalarida yuqori malakali mutaxassislar tayyorlashdagi tashabbuslari, Fanlar akademiyasi tizimida yangi ilmiy bo'lim va institutlar tashkil etishdagi rahbarlik faoliyati ochib berilgan. Shuningdek, uning rahbarligida o'nlab fan doktorlari va yuzlab fan nomzodlari yetishib chiqqani, milliy o'zbek falsafa maktabining shakllanishi va rivojida tutgan o'rni asoslab beriladi.

Maqolada Ibrohim Mo'minovning murakkab sovet mafkurasi sharoitida milliy tarix va ma'naviy merosni asrab-avaylash, xususan Amir Temur va temuriylar davrini ilmiy jihatdan xolis tadqiq etish yo'lidagi jasorati alohida ta'kidlanadi. Umuman, maqola akademik Ibrohim Mo'minov merosining bugungi mustaqil O'zbekiston ilm-fani va ma'naviy taraqqiyoti uchun muhim ahamiyatga ega ekanini ko'rsatib beradi.

***Kalit so'zlar:** Ibrohim Mo'minov, ilmiy maktab, milliy kadrlar tayyorlash, o'zbek falsafasi, Fanlar akademiyasi, ijtimoiy-gumanitar fanlar, falsafa va huquq instituti, ustoz-shogird an'anasi, Amir Temur tadqiqotlari, ma'naviy meros.*

KIRISH

Ibrohim Mo'minov asos solgan ilmiy maktab, uning O'zbekistonda milliy-ilmiy kadrlarni tayyorlashdagi xizmatlari xususida so'z borganda uning buyuk inson va olim, jonkuyar murabbiy va mehribon ustoz bo'lganligi, O'zbekiston ilm-faniga, madaniyati va ma'naviyati taraqqiyotiga, o'z davrining yetuk kadrlarini tayyorlashga qo'shgan hissasini alohida e'tirof etish zarur.

Ibrohim Mo‘minov O‘zbekistonda faqat falsafa ilmi va faylasuf olimlarni tayyorlash bilan cheklanmasdan, tarix, filologiya, sharqshunoslik fanlarining rivojiga, shu sohalar uchun yuqori malakali kadrlarni tayyorlashda ham nihoyatda katta xizmat qildi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR.

Tadqiqot jarayonida Ibrohim Mo‘minovning ilmiy merosi, uning shogirdlari tomonidan yozilgan asarlar, shuningdek, O‘zbekiston Fanlar akademiyasi nashrlari asosiy manba sifatida tahlil qilindi. Mavzu doirasida milliy va xorijiy tadqiqotchilarning falsafa, tarix va ijtimoiy fanlar rivojiga oid ilmiy ishlari qiyosiy yondashuv asosida o‘rganildi. Tadqiqotda tarixiylik va mantiqiylik tamoyillari uyg‘unligida Ibrohim Mo‘minov faoliyatining ijtimoiy-siyosiy sharoit bilan bog‘liqligi ochib berildi. Ilmiy natijalarga erishishda manbashunoslik, tarixiy-taqqoslash, tahlil va sintez, shuningdek, biografik metodlardan keng foydalanildi. Mazkur metodlar Ibrohim Mo‘minov asos solgan ilmiy maktabning shakllanishi va milliy-ilmiy kadrlar tayyorlashdagi ahamiyatini tizimli yoritishga imkon berdi.

XX asrning 50-yillarida O‘zbekiston SSRda 35 ta oliy o‘quv yurtlari bo‘lib, ularning barchasida ijtimoiy fanlar kafedralari, ko‘pchiligida maxsus falsafa kafedralari ochilgan edi¹. Biroq falsafa sohasida dars beradigan milliy kadrlar masalasi jiddiy muammo hisoblangan. Bir tomondan, o‘sha davrda respublikada faqat ikki kishi – Ibrohim Mo‘minov va V. Zohidov falsafa fanlari doktori ilmiy darajasiga ega bo‘lsalar, ikkinchi tomondan, V. Zohidov adabiyotshunoslik sohasida faoliyat olib borar edi.

Bu vaqtda Ibrohim Mo‘minov Samarqanddagi O‘zbek davlat universitetida kafedra mudiri bo‘lib ishlar edi. Falsafa bo‘yicha ilmiy ishni himoya qilish uchun Moskvaga yoki boshqa shaharlarga borish zarur edi. O‘zbekiston oliy ta‘limida faylasuflarga bo‘lgan talabning oshib borayotganligini hisobga olgan Ibrohim Mo‘minov, 1950 yillarning o‘rtalarida O‘zbek davlat universitetidagi Birlashgan ilmiy kengashda falsafa bo‘yicha nomzodlik dissertatsiyalari himoya qilish uchun ruxsat oladi². Bu ilmiy kengashda birinchilardan bo‘lib M.Xayrullaev, A.Axtamov, R. Karimov, G‘. Abdullaev va boshqalar falsafa bo‘yicha o‘z dissertatsiyalarini himoya qildilar va fan nomzodi ilmiy darajasini olishga erishdilar.

1955 yilda Ibrohim Mo‘minov Toshkentga O‘zbekiston SSR Fanlar akademiyasining Tarix va arxeologiya instituti direktori lavozimiga taklif etildi.

Mashhur olim, tarix fanlari doktori, professor Hamid Ziyoev bu jarayonlarni quyidagicha xotirlaydi: “Ibrohim aka bilan 1955-1956 yillarda, ya’ni Tarix

¹ Valiev A.Q. Jokuyar ustoz // O‘zbekistonda ijtimoiy fanlar. 1998, № 12. 59-bet.

² Valiev A.Q. Jokuyar ustoz // O‘zbekistonda ijtimoiy fanlar. 1998, № 12. 59-bet.

institutining direktori lavozimida ishlayotganida yaqindan tanishganman. Men u vaqtlarda institutning “XIX asrning ikkinchi yarmi - XX asr boshlarida O‘zbekiston tarixi” bo‘limida katta ilmiy xodim sifatida ishlar edim. Gapning ochig‘ini aytganda, mutaxassisligi faylasuf bo‘lgan kishining Tarix instituti boshliq kilib tayinlanishi bizlarni taajjublantirgandi. Biroq, vaqt o‘tishi bilan bu fikrning qanchalik asossizligiga shunchalik ko‘p ishonidik. Ibrohim aka o‘zining sofdilligi, ishbilarmonligi kamtarligi bilan namoyon bo‘ldi. U ayrim direktorlarga o‘xshab vaqtlarini ko‘proq bekorchilik bilan o‘tkazadigan va turli yo‘llar bilan kattalarning biqiniga suqulib kiradigan “sodiq” kishilarga emas, balki halol va mehnatsevar xodimlarga tayanib ish yuritardi. Natijada, ancha o‘pirilgan Tarix institutida muhim o‘zgarishlar ko‘zga tashlandi”.³

Ammo, ko‘p o‘tmay Ibrohim Mo‘minov O‘zbekiston Fanlar akademiyasining vitse-prezidenti vazifasiga saylanadi. Shundan keyin ham u Tarix institutiga umumiy rahbargina emas, aksincha, shu institutning haqiqiy jonkuyari hambo‘ldi.

“U kishida faqat olimlik emas, balki vatanparvarlik, tashkilotchilik, ishbilarmonlik va bag‘ri kenglik singari oliy fazilatlar mavjud edi. Ayni bir paytda, Ibrohim aka o‘ta kamtarligi va muruvvatligi bilan ajralib turardi. Ibrohim aka o‘zi egallab turgan lavozimning nihoyatda muhimligi va mas‘uliyatligini yaxshi anglab, ijtimoiy fanning barcha sohalarini rivojlantirish uchun tinimsiz harakat kildi. U mening mutaxassisligim faylasuflik deb, o‘zini chetga olmay tarix, falsafa, adabiyot, tilshunoslik va sharqshunoslik fanlariga doir ilmiy ishlarni tayyorlash va nashr etishga alohida ahamiyat berardi, u yoki bu ish bo‘yicha fikr-mulohazalarini bildirardi.

NATIJALAR

Ibroxim akaning xonasi odatdagidek, bo‘yruqbozlik, do‘q-po‘pisa, maydachuyda gaplar va umuman, rasmiyatchilik hamda yuzakichilik makoniga emas, balki tom ma‘nodagi ilmiy ijodxonaga aylangan edi. Bu yerda institut rahbarlari, bo‘lim mudirlari, ilmiy xodimlar, doktorantlar, aspirantlar va boshqa kishilar bo‘lishib, ijodlariga baraka va dardlariga malham topganlar. U kishining qabulxonasidan odam arimas edi. Bular bejiz bo‘lmagan, albatta. U ko‘plab fan doktorlari va nomzodlarini yetishtirishga ulkan hissa qo‘shdi”⁴, deb xotirlaydi Hamid Ziyoev.

MUHOKAMA

Ibrohim Mo‘minov 18 yil davomida O‘zbekiston SSR Fanlar akademiyasining vitse-prezidenti lavozimida ishladi. Bu davr davomida u kishi o‘zining qomusiy bilimini, boy hayotiy tajribasini, tashkilotchilik qobiliyatini ijtimoiy ilmlarni

³ Ziyoev H. Ona shahrim Toshkent va hayot yo‘limdan lavhalar. – Toshkent: Fan, 2008. 110-111-betlar.

⁴ Ziyoev H. Ona shahrim Toshkent va hayot yo‘limdan lavhalar. – Toshkent: Fan, 2008. 111-bet.

rivojlantirishga, bu sohadagi-ilmiy tadqiqot institutlarining tizimlarini mukammallashtirishga, ularning muammo va mavzularini kengaytirishga, mahalliy sharoitga mos tarzda yangi tadqiqot yo‘nalishlarini ishlab chiqish va bu borada yetuk mutaxassis olimlari tarbiyalab o‘stirishga baxsh etdi.

Ibrohim Mo‘minov ijtimoiy ilmlar borasidagi yangi yo‘nalishlarni va ilmiy muassasalarni tashkil etishning tashabbuskori edi. U kishi Samarqand Davlat dorilfununini, O‘zbekiston SSR Fanlar akademiyasi Prezidiumi huzurida Falsafa va huquq bo‘limi, keyinchalik O‘zbekiston SSR Fanlar akademiyasi Falsafa va huquq institutini, Afrosiyob kompleks arxeologik ekspeditsiyasini va boshqalarni tashkil etishda faol ishtirok etdi⁵.

1956 yil yanvaridan boshlab Tarix va arxeologiya institutida Falsafa bo‘limi ochildi. 1957 yil boshidan bu bo‘lim Huquq bo‘limi bilan birgalikda mustaqil – Falsafa va huquq bo‘limiga aylantirilib, Fanlar akademiyasi Prezidiumi huzuriga o‘tdi.

Bu davrda O‘zbekiston SSRning bevosita o‘zida mutaxassis-faylasuflar tayyorlanmasdi. Moskva, Leningraddagi oliy o‘quv yurtlarining Falsafa fakultetlarida O‘zbekistonlik talabalar juda kam edi va yiliga uni bitiruvchilar 1-2 kishini tashkil etardi. Shuning uchun Ibrohim Mo‘minov Toshkentga kelgan kundan boshlab falsafa bo‘yicha aspiranturaga va doktorlik dissertatsiyalarini yozishga boshqa fan mutaxassislarini jalb etish lozimligini ta’kidlar edilar. Chunki falsafa barcha fanlarning nazariy va uslubiy asosi bo‘lib, har bir fanning o‘ziga xos falsafiy muammolarini tadqiq etish shu fanlarning taraqqiyoti uchun muhim ahamiyat kasb etardi.

1958 yilda Fanlar akademiyasi Prezidiumi huzuridagi Falsafa va huquq bo‘limi alohida – Falsafa va huquq institutiga aylantirildi va 1958-1959 yillarda Ibrohim Mo‘minov uning birinchi direktori bo‘ldi⁶.

Institut huzuridagi ilmiy kengashda falsafa sohasida nomzodlik dissertatsiyalarini himoya qilishga ruxsat berildi va bu ilmiy kengashda birinchilardan bo‘lib aspirantlar S. Shermuhamedov, V. Samishkin, O. Umrzoqova, M. Baratov, H. Ziyovuddinov, A. Ahmedov, ilmiy xodimlar B. Ismoilov, O. Fayzullaev va boshqalar nomzodlik dissertatsiyalarini muvaffaqiyatli himoya qildilar⁷.

1968 yilda O‘zbekiston SSR Fanlar akademiyasi Falsafa va huquq instituti tomonidan “V.I. Lenin va tarixiy materializmning ayrim masalalari”, “Formirovanie sotsialnoy odnorodnosti obshchestva”, “Kommunizmi qurilishi bosqichida oila va maishiy

⁵ Akademik Ibrohim Mo‘minov (maqolalar va xotiralar). – Toshkent, 1993. 8-bet.

⁶ Академии наук Республики Узбекистан 50 лет. – Ташкент: Изд-во «Фан», 1993. С. 178

⁷ Valiev A.Q. Jonkuyar ustoz // O‘zbekistonda ijtimoiy fanlar, 1998. № 12. 60-bet.

turmushning ahloqiy asoslari (O‘zbekiston materiallari asosida)” nomli ishlar, Tarix va arxeologiya instituti tomonidan «Istoriya Uzbekskoy SSR» nomli 3 jildlik asar yakuniga yetkazildi⁸.

Ko‘p yillar davomida Ibrohim Mo‘minov bilan yonma-yon xizmat qilgan G‘aybulloh as-Salom shogirdlar va Fanlar akademiyasining boshqa ilmiy xodimlarining unga nisbatan munosabatini quyidagicha xotirlaydi: “Bizning janobi akademikni ko‘pchilik hech qanday “vich-pichsiz” – domla, deb atardi. Haqiqiy ustod uchun takalluf na darkor. Akademiya sarhadida barcha yoshu-qari domla deganda o‘zga kimni emas, yakkash Ibrohim domlani tushunishardi. Inson uchun bunday e‘zozlanish qanday baxt-a! Hech kim “Qaysi domla?” demasdi. Kim bo‘lardi, ie, shu o‘zimizni domlamiz-da, deb faxrlanishardi. G‘alat: o‘ris va boshqa g‘ayrimillat kishilari ham shunday murojaat qilishardi – domla”⁹.

Ibrohim Mo‘minov falsafa fanlari doktori, professor, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan fan arbobi, Beruniy nomidagi O‘zbekiston davlat mukofoti sovrindoni Omonulla Fayzullaevich Fayzullaevning ham ilmiy rahbari bo‘lgan.

Aslida O‘rta Osiyo davlat universitetining fizika-matematika fakultetini tugatgan Omonulla Fayzullaev o‘zining Falsafa va huquq institutiga kelib qolishini qo‘yidagicha xotirlaydi: “1959 yilning o‘rtalari. Men O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar kengashi Davlat ilmiy-texnika qo‘mitasi huzuridagi Ilmiy-texnika informatsiyasi va propagandasi institutining direktori edim. Bir kuni Akademik Muhammadjon Yo‘ldoshev xonamga kirib keldilar va o‘zaro suhbatda ... yaqinda Fanlar akademiyasi vitse-prezidenti Ibrohim Mo‘minov Falsafa huquq instituti ochilganini, endi tabiatshunoslik falsafasi bo‘limi mudiri topolmayotganligini aytganini, agar xo‘p desam, meni o‘sha yerga o‘tkazmoqchi ekanliklarini aytib qoldilar. Men institutga borguncha, menga mo‘ljallangan joy band bo‘lib qolgan ekan. Lekin Ibrohim Mo‘minov tomonidan katta ilmiy xodim sifatida ishga qabul qilinishga tavsiya etilgan ekanman. Men rozi bo‘ldim va bu qarorimdan hanuz xursandman”¹⁰.

XX asrning 60-70 yillari falsafa va huquqshunoslik sohasida fan doktorlari tayyorlashning sermahsul davri bo‘ldi. Xususan, 1964-1970 yillarda faylasuflardan R. Abdushukurov, Q. Xonazarov, E. Yusupov, M. Xayrullaev, A. Ortiqov, A. Valiev va H. Po‘latovlar doktorlik dissertatsiyalarini muvaffaqiyatli himoya qildilar. Keyingi yillarda ham bu an‘ana davom ettirildi va bu davrda faylasuflarning yana bir katta

⁸ Важнейшие достижения в области естественных и общественных наук за 1968 год. Отчет академии наук СССР. Москва, 1969. С. 133, 134, 148

⁹ G‘aybulloh as-Salom. Ezgulikka chog‘lan odamzod. – Toshkent: Sharq, 1997. 251-bet.

¹⁰ Fayzullaev O. XX asr ziyolilari: ustozlarim va safdoshlarim. – Toshkent: Falsafa huquq instituti nashriyoti. 2008. 93-95-betlar.

guruhi doktorlik dissertatsiyalarini muvaffaqiyatli himoya qildilar. Ular orasida O. Umrzoqova, S. Shermuhammedov, M. Barotov, K. Sodiqov, A. Axmatov, O. Fayzullaev, S. Tursunmuhamedov, X. Vohidov, T. Abdushukurov va boshqalar bor edi.

Shu o'rinda Ibrohim Mo'minov asos solgan milliy o'zbek falsafa maktabining yorqin vakili Muzaffar Xayrullaevning faylasuf olim sifatida shakllanishi bilan bog'liq ma'lumotlarni tahlil etish o'rinlidir.

Ibrohim Mo'minov falsafa maktabining shohsupasidan o'rin egallagan eng yosh tadqiqotchilardan Muzaffar Xayrullaevning "falsafa daryosiga" kirib kelishi o'ziga xos bo'lib, bu jarayon Ibrohim Mo'minovning ko'magi va maslagida amalga oshgan edi. Naim G'oibovning xotiralariga ko'ra, Muzaffar Hayrullaev atay Toshkentdan Samarqandga kelib, Ibrohim Mo'minovga shogird tushgan¹¹. "... men Ibrohim Mo'minov bilan 1952 yil aspiranturada tanishdim va shundan boshlab umrining so'ngigacha (1974 yil) bu ajoyib mehribon inson va haqiqiy vatanparvar, millatparvar olim rahbarligida va u kishi bilan hamkorlikda xizmat qildim. 1956 yilda Ibrohim Mo'minov menga chet el matbuotida nashr etilgan Forobiy haqidagi olti betlik kichik maqola bilan tanishib chiqishni topshirdilar. Bu maqola meni o'ziga jalb etdi va so'nggi ilmiy izlanishlarimni belgilab olishda hal qiluvchi rol o'ynadi"¹².

Muzaffar Hayrullaev Ibrohim Mo'minov bilan bir safda turib sadoqatli shogird sifatida undan rag'batlanib, o'zbek falsafasini, Forobiy asarlari tadqiqotini umumjahon andozalari darajasiga ko'tardi, ularni jahonga tanitishda o'ziga xos barokatli ijodiy faollik ko'rsatdi. Ya'ni, o'zbek milliy falsafasiga doir milliy asarlarni jahonga olib chiqdi va jahon falsafiy anjumanlarida targ'ibot ishlarini ro'yobga chiqardi¹³.

Shu o'rinda akademik Ibrohim Mo'minov tomonidan asos solingan milliy falsafa maktabining yorqin vakillarini sanab o'tishni joiz deb topdik. Albatta bu ro'yxat juz'iy bo'lib, uni yanada to'ldirish, Ibrohim Mo'minov asos solgan maktabning bugungi kundagi vakillari hisobiga ham kengaytirish mumkin.

O'zbekiston Fanlar akademiyasining faylasuf akademiklari:

1. Ibrohim Mo'minov – milliy falsafa maktabining asoschisi.
2. Vohid Zohidov.
3. Muzaffar Xayrullaev.

¹¹ Akademik Muzaffar Xayrullaev: xotiralar va maqolalar. – Toshkent: Falsafa va huquq instituti nashriyoti, 2006. 23-bet.

¹² Xayrullaev M.M. Milliy ma'naviyatimizning ulkan jonkuyari. Akademik Ibrohim Mo'minov (Maqolalar va xotiralar). – Toshkent, 1993. 28-29-b. Xayrullaev M.M. Milliy ma'naviyatimizning ulkan jonkuyari. Akademik Ibrohim Mo'minov (Maqolalar va xotiralar). – Toshkent, 1993. 28-29-b.

¹³ Akademik Muzaffar Xayrullaev: xotiralar va maqolalar. – Toshkent: Falsafa va huquq instituti nashriyoti, 2006. 56-bet.

4. Erkin Yusupov.
5. Abulxay Valiev.
6. Mubin Baratov.
7. Haydar Po‘latov.
8. Jondor Tulenov.
9. Said Shermuhammedov.
10. Sattor Tursunmuhammedov.
11. Jumanazar Bozorboev.

Ibrohim Mo‘minov respublikamizda faqat falsafa fanining rivojlanishiga asos solish bilan cheklanmadi. Fanning barcha sohalarini, ayniqsa, ijtimoiy fanlar sohalarining kamol topishi va rivojlanishi uchun g‘amxo‘rlik qildilar va borada ulkan tashkiliy ishlarni amalga oshirdilar. U Fanlar akademiyasining vitse-prezidenti sifatida doktorlik dissertatsiyasi ustida ishlovchilarga barcha imkoniyatlarni yaratib berishga harakat qildi. Uning rahbarligida yoki qo‘llab-quvvatlashi natijasida tarixchi olimlardan Sabohat Azimjonova, Melixon Oxunova, Hamid Ziyoevlar, adabiyotshunos T. Sobirov va boshqalar doktorlik dissertatsiyalari muvaffaqiyatli himoya qildilar¹⁴.

Ibrohim Mo‘minov buyuk olim, mehribon ustoz va donishmand shaxs edi. Yuqori malakali yuqori malakali huquqshunos mutaxassislarni tarbiyalashda, yetishtirishda, huquq fanining yo‘nalishlarini belgilashda, uning zamon talablariga javob beradigan darajaga ko‘tarilishida u kishining hissasi buyuk, desak mubolag‘a qilmagan bo‘lamiz. Ibrohim Mo‘minovning tashabbusi bilan tashkil etilgan Falsafa va huquq instituti huzuridagi ixtisoslashtirilgan Ilmiy kengash O‘zbekiston uchun ko‘p miqdorda yuqori malakali huquqshunos olimlar – fan nomzodlari va fan doktorlarini tayyorlab berdi. Ular hozirgi kunda fan va ta‘lim muassasalarida, oliy va o‘rta-maxsus o‘quv yurtlarida malakali mutaxassislar tayyorlab yetkazishda faol mehnat qilmoqdalar. Huquqshunos olimlar mustaqil O‘zbekistonning qonunchilik faoliyatida, qonun loyihalarini ishlab chiqishda ham doimiy ishtirok etmoqdalar¹⁵.

Sovet yillarida davlat va huquq asoslarini o‘rganishda kommunistik mafkura g‘oyalari hukmronlik qildi. O‘z navbatida davlatning demokratik tabiati, ittifoqdosh respublikalarning suvereniteti to‘la namoyon bo‘lmadi. Huquqshunos olimlar tomonidan 1917 yilgacha bo‘lgan davlat va huquqning boy tarixi maxsus ravishda deyarli o‘rganilmadi. Bugun bu to‘g‘risida gapirish oson. Biroq, yaqin o‘tmishimizda o‘zbek millati o‘zining chuqur o‘tmishini eslash huquqidan deyarli mahrum bo‘lgan va unutishga mahkum etilgan, har qanday o‘y-fikrlash ma‘lum qoliplar va andozalar

¹⁴ Valiev A.Q. Jonkuyar ustoz // O‘zbekistonda ijtimoiy fanlar, 1998. № 12. 60-bet.

¹⁵ Valiev A.Q. Jonkuyar ustoz // O‘zbekistonda ijtimoiy fanlar, 1998. № 12. 62-bet.

bilan o'lgan va undan tashqariga chiqqanlarning holiga maymunlar yig'lagan davrlar ham bo'lgan edi. Mana shunday davrda Ibrohim Mo'minov nihoyatda ustalik va noziklik bilan, aytish mumkinki, qilichning tig'ida turgan holda aql bovar qilmas ishlarni amalga oshirdi. U boy madaniy-ma'naviy merosimizni nafaqat saflab qola bildi, shuningdek uni rivojlantirish va yanada boyitish uchun harakat qildi¹⁶.

Ibrohim Mo'minov nafaqat tarix va falsafiy ilmlar sohasida, balkim ijtimoiy fanlarning boshqa sohalari, xususan o'zbek til va adabiyoti sohasida ilm izlab yurgan yoshlarning ham boshini silagan, ularga to'g'ri yo'l ko'rsatgan, beminnat maslahatlar bergan dono murabbiy va mehribon ustoz edilar. 1938 yilda O'zbek davlat universitetiga o'qishga kirgan, keyinchalik atoqli shoir, yozuvchi va dramaturg bo'lib yetishgan Asqad Muxtor (1920-1997) Ibrohim Mo'minov bilan bog'liq xotiralarini quyidagicha bayon etadi: "Hurmatli domlamiz Ibrohim Mo'minov (oxiratlari obod bo'lg'ay) Samarqand dorilfununida talabalarning eng sevimli muallimi edilar. Chuqur bilimli, xushmuomala, hammamizning mehrimizni qozongan bu samimiy insonning darslariga yopirilib kirardik. U kishining nutqlari ravon va maroqli, kattakon auditoriyada o'zbek va rus gruppalarini qo'shib, minbar yonida oyoqlarini keng qo'yib, hech qanday qog'oz-kitobsiz, 6aland ovoz bilan dadil dars o'tishlari hamon ko'z o'ngimda.

U vaqtlarda talabalarni amaliy-ijodiy mashg'ulotlar bilan band qilish usullari ko'p bo'lib, Abramov xiyobonining so'lim go'shalarida qizlar bilan sayr qilishga ham vaqtimiz yetishmas edi. Misol uchun aytsam, darsdan tashqari mashg'ulotlardan «kurs ishi» yozish odati bo'lardi. Bu bizning mustaqil fikrlash, ijodiy qobiyatlarimizni ochish imkonini berardi.

Bir kuni Ibrohim aka o'rta asr tarixidan kurs ishi yozish uchun mavzular taklif qildilar. Men «Temur davri» degan mavzuni tanladim.

Vazifa bajarilganidan keyin domla «Sening ishing ma'qul», deb, meni dorilfunun kutubxonasining «Kichik qiroat zali»ga boshlab kirdilar. Bu yerda bizning adabiy to'garak mashg'ulotlarimiz o'tardi. To'garak yuqori kurs talabasi Sharof Rashidov tashabbusi bilan tashkil etilgan bo'lib, mashg'ulotlarni domla Sadriddin Ayniy, professor Abdurahmon Sa'diy o'tkazganliklari uchun u ancha e'tibor qozongan edi. Dorilfununda bir qur leksiyalar o'qish uchun 'Goshkentdan kelgan Maqsud Shayxzoda ham to'garagimizda bir necha mashg'ulotlar o'tkazgan, «uning nomi Navoiy to'garagi bo'lsin», deb taklif qilgan edilar.

- Navoiy to'garagidansan-a?— deb so'radilar Ibrohim aka «Kichik zal»ga kirib o'tirganimizdan keyin. U kishi mening «ish»imda ba'zi badiiy bo'yoqlarni payqagan ekanlar chog'i, ijoddan gap ochdilar. Va Amir Temur bilan Ayri Berdi afsonasini

¹⁶ Valiev A.Q. Jonkuyar ustoz // O'zbekistonda ijtimoiy fanlar, 1998. № 12. 62-bet.

hikoya qilib berdilar, afsonaning tarixiy zaminlari borligini tushuntirib, ba'zi adabiyotlarni tavsiya etdilar. Xullas, shu haqda hikoyami, qissami yozish mumkinligiga shama qilib, dalda uchun men haqimda bir necha og'iz yaxshi so'z aytdilar.

Qisqasi, hikoyaning syujetini menga domla tuhfa etganlar. Ammo uni men o'sha vaqtda yozolmadim, ko'p o'yladim, ko'p taraddud qildim, bir necha bor boshladim ham, ammo yozolmadim, hozir o'ylashimcha, yozolmas ekanman. Da'vosi katta, dumbul bir talaba edik-da u vaqtda.

Keyin urush boshlanib, meni harbiy o'quv yurtiga oldilar, so'ngra dorilfununimiz O'rta Osiyo dorilfununiga qo'shib, Toshkentga ko'chib keldi.

Ammo domlaning rag'batini so'nmadi. 1967 yil edi shekilli, Karl Marks ko'chasining xiyobonga tutashgan joyida Ibrohim aka bilan ko'rishib, o'sha «Temur davri»ni va afsona syujetini eslashdik.

– Yozganman, domla! – dedim men.

Ibrohim aka yozgan narsamga qiziqib, uchrashish joyini tayinladilar. Sal narida Oliy Partiya maktabi joylashgan edi, «Shunda darsim bor, indinga shu yerga kel, direktor xonasiga», dedilar.

Indiniga keldim. Direktor xonani bo'shatib, choy, quyib berdi. O'qidik. Domla uzoq sukutda qoldilar. Anchadan keyin, «Ma'qul, ma'qul...» deb takrorladilar-u, bosh ko'tarmadilar.

– Lekin ... – dedilar yana o'ylab turib, – sen buni hozir biron joyga bermay qo'yaqol. Mening kunim sening ham boshingga tushib o'tirmasin ...

Hang-mang bo'lib uyga qaytdimu qo'lyozmani tashlab qo'ydim. Domlaning boshiga nima ish tushganini keyinroq bildik. Yaqinda arxivlarimni Ko'lyozmalar instituti uchun olgani kelganlarida, eski qo'lyozmalar orasidan ana shu hikoya chiqib qoldi. Men uni sevimli domlamiz xotirasiga bag'ishlab nashr etishga qaror qildim¹⁷.

Ibrohim Mo'minov nihoyatda shogirdparvar, mehribon ustoz sifatida 20 dan ziyod fan doktorlari va 80 dan ziyod fan nomzodlarining ilmiy ishlariga rahbarlik qilganlar. U 200 dan oshiq chop etilgan ishlar muallifi bo'lgan. Allomaning ilmiy ijodiga mansub, chop etilgan ishlari xususiga kelsak, manzara qo'yidagicha. Albatta, Ibrohim Mo'minov qandaydir bir ijtimoiy-ma'naviy bo'shliqda yashamagan, muallaq bir vaziyatda qalam tebratmagan. Ibrohim Mo'minovning butun umri, hayotiy yo'li kechgan davrning qanday bo'lganligi, endi, barchaga ma'lum. Alloma oddiy bir qalam sohibi emasdi. U ilm-fan sohasidagi yirik lavozimlarda ishlagan va, shu bois ham, o'z davrining muhim ijtimoiy buyurtmalarini bajarishga, xizmat burchi nuqtai –

¹⁷<https://kh-davron.uz/dir/kutubxona/amir-temur> (murojaat sanasi 15.09.2022 й.)

nazaridan, majbur bo'lgan. Ibrohim Mo'minov o'zi yashagan ijtimoiy-ma'naviy muhitning mahsuli, farzandi ham edi.

“Biroq, har bir davrning ham, bamisoli oiladagiday, har xil farzandlari bo'ladi. Alloma Ibrohim Mo'minov o'z davrining, xalqining, Vatanining tanti, sodiq, asl farzandi edi. Ibrohim Mo'minov shaxsiga, ijodiga baho berishda ikkita, bir – biriga zid, noto'g'ri yondashuvga yo'l qo'ymaslik muhim. Ya'ni, alloma, go'yoki, butun vujudi ila sho'rolar ma'muriy –qo'mondonlik tuzumini mustahkamlash ishiga xizmat qilgan yoki, joriy siyosatdan birmuncha uzoq bo'lmish, falsafa tarixi bilan shug'ullanib, bir umr hukmron tizimga, uning xurujiga faqat chap berib yashagan. Aslida, unday ham emas, bunday ham emas.

Ibrohim Mo'minovga xos bo'lgan bag'rikenglik, donishmandlik, mehribonlik va el-yurt manfaatlarini barcha narsadan ustun qo'yish kabi buyuk fazilatlar uning shogirdlari tomonidan ustozlarining xotirasini abadiylashtirish bo'yicha amalga oshirayotgan ishlarda ham davom etib kelmoqda. Xususan, Akademik S. Shermuhammedov xalqimizning asl farzandi, buyuk faylasuf olim Ibrohim Mo'minovich Mo'minov tug'ilganiga 85 yil to'lishi munosabati bilan 1993 yilda o'tkazilgan O'zbekiston Fanlar akademiyasining tantanali yig'ilishida o'zbek adabiyoti, san'ati, fani, madaniyai arboblari, buyuk vakillari ro'yxatini yangi nomlar bilan boyitish va bu ro'yxatga Ibrohim Mo'minovni ham kiritishni taklif etdi¹⁸. Aynan Said Shermuxamedovning tashabbusi bilan Buxoro viloyati Shofirkon tumanining Tezgo'zar qishlog'idagi maktabda Ibrohim Mo'minovning hayoti, ilmiy-pedagogik va jamoatchilik faoliyatidan hikoya qiluvchi muzey tashkil qilingan edi. O'z vaqtida bu maktabda tashkil etilgan muzeyga Sharof Rashidov ham tashrif buyurgan edi¹⁹.

1998 yilda Beruniy nomidagi davlat mukofoti sovrindori, akademik Ibrohim Mo'minov tavalludining 90 yilligi munosabati bilan Samarqand davlat universitetida “Mustaqil O'zbekistonda ma'naviyat, ma'rifat va xalq salomatligini saqlashning dolzarb muammolari” mavzusida ilmiy konferensiya bo'lib o'tdi. Unda Ibrohim Mo'minov asos solgan ilmiy maktabning ko'zga ko'ringan vakillari – A.A. Ahtamov “Uztozim haqida”, F.S. Solieva “Istiqlolni ko'ylagan alloma”, A.K. Valiev “I.M. Mo'minovning ijtimoiy taraqqiyot to'g'risidagi qarashlari”, G'.S. Abdusattorov “Buyuk inson”, M.N. Abdullaeva va M.A. Baratovlar “Выдающийся мыслитель-энциклопедист Узбекистана”, A. Azizqulov va Sh.S. Qushoqovlar “Ibrohim Mo'minovning falsafiy tadqiqotlarida ratsionallik muammolari”, F.S. Solieva va V.S.

¹⁸ Shermuhammedov S. Falsafa fanini yangilanishining ba'zi muammolari. – Toshkent: Fan, 1994. 28-bet.

¹⁹ Shofirkonlik mehnat faxriysi Ashur Aminov bilan o'tkazilgan suhbat-intervyu materiallari. Shofirkon, 2022 yil 23 mart.

Lejinskiylar “Duxovnyy predtecha nezavisimogo svetskogo Uzbekistana”, E.A. Abduxamitova «I.M. Muminov o gumanisticheskom potensiale duxovnogo naslediya proshlogo», M.A.Axmedov va Yu.M. Axmedovlar “O‘tmish allomalarni eslab”, N.E. Ubaydov “Mirzo Ulug‘bek merosi – ma’naviyatimiz qirrasidir”, H. Aliqulov “I.M. Mo‘minov Temuriylar davri falsafasi haqida” nomli ma’ruzalari bilan chiqish qildilar²⁰.

2008 yilda Ibrohim Mo‘minov tavalludining 100 yilligi O‘zbekistonda keng nishonlandi. O‘zining “Tog‘dan qanchalik uzoqlashsang, uning salobati, ulkanligi, ko‘rki shunchalik yaqqolroq ko‘rinadi” so‘zlari bilan Ibrohim Mo‘minovning yorqin tavsifini keltirgan faylasuf olim Naim G‘oyibov ustozining faoliyati yoritilgan “Donishmand” risolasini e‘lon qildi²¹.

Yuqorida keltirilganlarning barchasi Ibrohim Mo‘minov asos solgan ilmiy maktabning ko‘lami qanchalik salmoqli ekanligini asoslovchi kichik bir misollar, xolos.

XULOSA

Ibrohim Mo‘minov o‘z davrining o‘zbek millati manfaatlarini donolik bilan himoya qila olgan va bu millatga yetarlicha g‘amho‘rlik namunalarni ko‘rsatgan eng fidoiy olimlardan biri edi. U haqiqiy millatparvar, vatanparvar va tom ma’noda qomusiy olim va dono murabbiy edi.

Ibrohim Mo‘minov O‘zbekiston SSR Fanlar akademiyasi tizimida dastlab Tarix va arxeologiya institutining direktori (1955-1956), akademiya vitse-prezidenti lavozimida ishlagan yillari (1956-1974) uning olimlik, rahbarlik, ijodkorlik fazilatlarini, ajoyib iste’dodi yanada yorqin namoyon bo‘ldi. U O‘zbekistonda ijtimoiy fanlarning tashkiliy jihatdan mustahkamlanishiga, bu sohaning yanada kengayishi, ilmiy mutaxassislar safining ko‘payishiga katta hissa qo‘shdi.

Akademik Ibrohim Mo‘minov Fanlar akademiyasining vitse-prezidenti sifatida O‘zbekistondagi barcha ijtimoiy-falsafiy yo‘nalishlarning boshida turdi va ayni vaqtda Amir Temur va temuriylar davrini ilmiy jihatdan o‘rganishda yangi bosqichni boshlab berdi. U o‘zining zohiran uzoq, ammo botinan yaqin vatandoshi, buyuk sohibqiron va davlat arbobi Amir Temurning shaxsi, uning saltanati va temuriylar davri haqida uzoq yillar ilmiy izlanishlar olib borgan, Temuriylar va ularning jahon tarixidagi o‘rni va roli to‘g‘risida salmoqli asarlar yaratgan ulkan alloma edi.

Sovet tuzumi sharoitida Ibrohim Mo‘minovning Amir Temur saltanati tarixi, uning shaxsiy hayoti va faoliyatiga bag‘ishlangan asarlari g‘oyat katta ahamiyatga

²⁰ Mustaqil O‘zbekistonda ma’naviyat, ma’rifat va xalq salomatligini saqlashning dolzarb muammolari. Beruniy nomidagi davlat mukofoti sovrindori, akademik I.M. Mo‘minovning 90-yilligiga bag‘ishlangan ilmiy konferentsiya to‘plami. – Samarqand, 1998. - 170 b.

²¹G‘oyibov N. Donishmand. – Toshkent: O‘zbekiston, 2008. – 64 b.

egadir. Mustabid tuzum qutirib, ma'muriy buyruqbozlik, markazning yakka hokimligi avj olib, o'zbek xalqi tarixi ochiqdan-ochiq soxtalashtirilayotgan, milliy va ma'naviy qadriyatlar, uning buyuk siymolari tahqirlanayotgan, tarixiy haqiqatni aytish uchun intilayotganlar esa quvg'in qilinayotgan bir sharoitda "qonxo'r Temur" haqida xolisona ijobiy fikr aytish chinakam ilmiy matonat va tom ma'nodagi qahramonlik edi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

Arxiv ma'lumotlari

1. O'zbekiston Milliy arxivi, R-837-fond, 41-ro'yxat, 4518-saqlov birligi, 217-218 varaqlar.

Kitoblar

1. Fayzullaev O. XX asr ziyolilari: ustozlarim va safdoshlarim. – Toshkent: Falsafa huquq instituti nashriyoti. 2008. 93-95-betlar.
2. G'aybulloh as-Salom. Ezgulikka chog'lan odamzod. – Toshkent: Sharq, 1997. 251-bet.
3. G'oyibov N. Donishmand. – Toshkent: O'zbekiston, 2008. – 64 b.
4. Akademik Ibrohim Mo'minov (maqolalar va xotiralar). – Toshkent, 1993. 9-10-betlar.
5. Shermuhammedov S. Falsafa fanini yangilanishining ba'zi muammolari. – Toshkent: Fan, 1994. 28-bet.
6. Shofirkonlik mehnat faxriysi Ashur Aminov bilan o'tkazilgan suhbat-intervyu materiallari. Shofirkon, 2022 yil 23 mart.
7. Xayrullaev M.M. Milliy ma'naviyatimizning ulkan jonkuyari. Akademik Ibrohim Mo'minov (Maqolalar va xotiralar). – Toshkent, 1993. 28-29-b
8. Ziyoev H. Ona shahrim Toshkent va hayot yo'limdan lavhalar. – Toshkent: Fan, 2008. 110-111-betlar.
9. Akademik Ibrohim Mo'minov (maqolalar va xotiralar). – Toshkent, 1993. 8-bet.
10. Akademik Muzaffar Xayrullaev: xotiralar va maqolalar. – Toshkent: Falsafa va huquq instituti nashriyoti, 2006. 23-bet.
11. Академии наук Республики Узбекистан 50 лет. – Ташкент: Изд-во «Фан», 1993. С. 178
12. Важнейшие достижения в области естественных и общественных наук за 1968 год. Отчет академии наук СССР. Москва, 1969. С. 133, 134, 148

Jurnallar

1. Jalolov A. Ibrohim Mo'minov – alloma, arbob va inson. // O'zbekistonda ijtimoiy fanlar jurnali; 1998, №12. 33-bet.

2. Mo'minov saboqlari // O'zbekiston adabiyoti va san'ati. 1992 yil 19 iyun №25 (3181) 5, 7-betlar.
3. Valiev A.Q. Jokuyar ustoz // O'zbekistonda ijtimoiy fanlar. 1998, № 12. 59-bet.
4. Mustaqil O'zbekistonda ma'naviyat, ma'rifat va xalq salomatligini saqlashning dolzarb muammolari. Beruniy nomidagi davlat mukofoti sovrindori, akademik I.M. Mo'minovning 90-yilligiga bag'ishlangan ilmiy konferentsiya to'plami. – Samarqand, 1998. - 170 b.

Vebsayt

1. <https://kh-davron.uz/dir/kutubxona/amir-temur> (murojaat sanasi 15.09.2022 й.)